



UDK: 102:0307.04.4(01:11-01)

Nurbek SAFAROV,

PhD, dotsent, mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston

E-mail:safarovnurbek78@gmail.com

DSc R.Rustamov taqrizi asosida

TINCHLIK VA XAVFSIZLIKKA QARSHI JINOYATCHILIK KO'RINISHLARI VA ULARNING TAHDIDLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikning asosiy ko'rinishlari hamda ularning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Terrorizm, ekstremizm, separatizm, odam savdosi, kiberjinoyatchilik va transmilliy uyushgan jinoyatchilik kabi tahdidlarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, ushbu jinoyatlarning davlat barqarorligi, fuqarolar xavfsizligi va xalqaro munosabatlarga yetkazadigan zararli oqibatlarini yoritiladi. Tadqiqot davomida jinoyatchilikning kelib chiqish omillari, ijtimoiy-falsafiy va huquqiy asoslari tahlil etilib, ularning oldini olish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada global xavfsizlikni ta'minlash, yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishning dolzarb ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Jinoyatchilik, jamiyat, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy tartib, axloqiy inqiroz, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik, ijtimoiy tengsizlik, fuqarolik madaniyati, yoshlar tarbiyasi, milliy xavfsizlik.

FORMS OF CRIMES AGAINST PEACE AND SECURITY AND THEIR THREATS

Annotation

This article scientifically analyzes the main forms of crimes against peace and security and their negative impact on the development of society. The essence and characteristics of such threats as terrorism, extremism, separatism, human trafficking, cybercrime, and transnational organized crime are revealed. In addition, the harmful consequences of these crimes on state stability, public security, and international relations are highlighted. The study examines the causes of criminality, as well as its socio-philosophical and legal foundations, with particular attention given to prevention mechanisms. The article substantiates the importance of ensuring global security, protecting young people from destructive ideas, and strengthening international cooperation in combating modern threats.

Keywords: Crime, society, social stability, legal order, moral crisis, spiritual values, social relations, justice, rule of law, security, social inequality, civic culture, youth education, national security.

ПРОЯВЛЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ МИРА И БЕЗОПАСНОСТИ И ИХ УГРОЗЫ

Аннотация

В данной статье с научной точки зрения анализируются основные проявления преступлений против мира и безопасности, а также их негативное влияние на развитие общества. Раскрываются сущность и содержание таких угроз, как терроризм, экстремизм, сепаратизм, торговля людьми, киберпреступность и транснациональная организованная преступность. Также освещаются вредные последствия данных преступлений для государственной стабильности, безопасности граждан и международных отношений. В ходе исследования анализируются причины возникновения преступности, её социально-философские и правовые основы, а также уделяется особое внимание механизмам её предупреждения. В статье обосновывается актуальность обеспечения глобальной безопасности, защиты молодёжи от чуждых идей и укрепления международного сотрудничества.

Ключевые слова: преступность, общество, социальная стабильность, правопорядок, нравственный кризис, духовные ценности, социальные отношения, справедливость, верховенство закона, безопасность, социальное неравенство, гражданская культура, воспитание молодёжи, национальная безопасность.

Zamonaviy jinoyatchilikning yana bir ko'rinishi tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlardan tarkib topadi. Ko'plab mamlakatlarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar sifatida quyidagilar tan olingan: a) urushni targ'ib qilish; b) agressiya; v) urushning qonun va udumlarini buzish; g) genotsid; d) yollanish; ye) chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga kirish; j) terrorizm; z) tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik; i) terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish; k) terrorizmni moliyalashtirish; l) milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish; m) davlatga xoinlik qilish; n) Prezidentga tajovuz

qilish; o) konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish; p) josuslik; r) qo'poruvchilik; s) davlat sirlarini oshkor qilish; t) davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish[1].

Xuddi shuning uchun ham bizning davrimizga kelib tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikni kamaytirish masalasi insoniyatning munosib turmushini ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etila boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro huquq komissiyasi turli mamlakatlarning ushbu ko'rinishdagi jinoyatlarga qarshi kurashini muvofiqlashtirish maqsadida 1991 yilda "Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi Kodeks" loyihasini ishlab chiqdi va birinchi o'qishda qabul qildi. Unda quyidagilar tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar sifatida belgilab qo'yildi: 1) tajovuz; 2) tajovuz tahdidi; 3) boshqa davlatning ichki va tashqi

ishlariga aralashish; 4) mustamlakachilik hukmronligi va boshqa turdagi xorijiy hukmronlik; 5) genotsid; 6) aparteid; 7) inson huquqlarini tizimli va ommaviy ravishda buzish; 8) o'ta og'ir harbiy jinoyatlar; 9) yollanma jangchilarni jalb qilish, ulardan foydalanish, moliyalashtirish va tayyorlash; 10) xalqaro terrorizm; 11) g'iyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasi; 12) atrof-muhitga qasddan va jiddiy zarar yetkazish[2].

Jahonning yetakchi mintaqalarida ham tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikni kamaytirish vazifalariga alohida e'tibor berila boshlandi. Tahlillar ko'rsatadiki, bu boradagi sa'y-harakatlar huquqni muhofaza qilish institutlarini modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, profilaktik dasturlarni amaliyotga tatbiq qilish yordamida amalga oshirilmoqda[3]. Jumladan, AQShda shu maqsadda 2021-2025 yillarga mo'ljallangan maxsus dastur qabul qilinib, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni sodir etayotgan guruhlarga qarshi kurash kuchaytirildi[4]. Yevropa Ittifoqida 2020 yilda qabul qilingan xavfsizlik strategiyasida tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikni kamaytirish vazifalari alohida e'tirof etildi. Bu borada turli mamlakatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, tashqi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish, yetakchi mamlakatlar bilan strategik maslahatlarni yo'lga qo'yish masalalariga diqqat jamlanmoqda[5]. Xitoyda esa keyingi yillarda tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarga qarshi kurashning huquqiy asoslari kuchaytirildi. Shuningdek, Xitoy so'nggi yillarda tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikka qarshi hamkorlikni benihoya faollashtirdi[6]. Umuman olganda, jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi jinoyatlarga qarshi kurash nafaqat huquqiy meyorlarga amal qilish, balki ijtimoiy-profilaktik dasturlarni ro'yobga chiqarish, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish, davlatlararo strategik hamkorlikni kuchaytirish orqali ham olib borilmoqda.

Biroq ko'rilgan choralar va jamlangan tajribalarga qaramasdan tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilik kishilik jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy hayotiga jiddiy tahdid solayotgan omilligicha qolmoqda. Jahonning turli nuqtalarida muttasil ravishda uning turfa ko'rinishlari bot-bot va yorqin namoyon bo'lmoqda. Chunonchi, keyingi yillarda urushni bevosita targ'ib qilish bilan bog'liq jinoyatlar sezilarli ravishda oshdi. Yangi asrga kelib, jahonning yetakchi mamlakatlari o'rtasidagi geosiyosiy ziddiyatlar nihoyatda keskinlashdi. Bu ziddiyatlar dunyoning turli mintaqalarida qator mojarolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ana shu ziddiyat va mojarolar muayyan siyosiy kuchlarni va guruhlarini urushni zo'r berib targ'ib qilishga undamoqda. Aslida bunday targ'ibot mamlakat harbiy-texnik tayyorgarligining tarkibiy qismi hisoblanadi va aholini urush qilish zaruriyati yuzaga kelganiga ishonirish maqsadida amalga oshiriladi[7].

Yangi asrda harbiy tajovuz bilan bog'liq jinoyatlar ham ko'paydi. O'tgan asr davomida keng e'tirof etilgan xalqaro huquq meyorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining mintaqalardagi tinchlikni saqlash maqsadidagi sa'y-harakatlari davlatlar o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlarni bir qadar cheklab turgan bo'lsa, yangi asrda bu choralar harbiy tajovuzlarning oldini olish uchun kifoya qilmay qo'ydi. Yangi asrdagi geosiyosiy ziddiyat, bir-biriga diametral qarama-qarshi bo'lgan siyosiy va iqtisodiy manfaatlar tajovuzkor siyosatni, harbiy bosimni, harbiy kuch ishlatishni siyosiy maqsadlarga erishishning asosiy vositalaridan biriga aylantirdi. Bugung kunda ayrim davlatlar va siyosiy kuchlar muxoliflarga harbiy yo'l bilan ta'sir o'tkazishni o'z maqsadlariga erishishning qonuniy vositasi sifatida ko'rmoqdalar. Bunday yondashuv

qator mintaqalarda katta qurbonlarga va gumanitar inqirozlarga olib kelmoqda.

Xalqaro huquqshunoslari Iroqqa nisbatan 2003 yilda amalga oshirilgan harbiy harakatlarni tajovuz sifatida baholadilar va keskin tanqid ostiga oldilar. Mazkur harakatlar BMT mandatiga asoslanmagani xalqaro huquq meyorlarining qo'pol ravishda buzilishi sifatida baholandi. Ushbu harbiy tajovuz oqibatida yuz minglab kishilar hayotdan ko'z yumdilar, mamlakat esa uzoq yillik beqarorlik davriga qadam qo'ydi[8]. Ekspertlarning katta qismi 2014 yildan buyon Ukrainada kechayotgan mojarolarni ham harbiy tajovuz sifatida tavsiflamodalar. Ularning fikriga ko'ra, Qrimning anneksiya qilinishi, undan keyingi qurolli to'qnashuvlar ham xalqaro huquq meyorlari va davlat suvereniteti tamoyillarining buzilishidan boshqa narsa emas. Yaqin Sharqdagi boshqa tajovuzlar, Yamandagi qonli to'qnashuvlar, G'azdagi harbiy harakatlar tinch aholiga nisbatan zo'ravonlik, inson huquqlari va erkinliklarining qo'pol ravishda buzilishi va insonparvarlik inqirozining chuqurlashishi bilan namoyon bo'ldi. Bu misollar XXI asrda harbiy tajovuz bilan bog'liq jinoyatlar kengayganini, davlatlar o'rtasida kuch ishlatish tendensiyasi yanada kuchayganini aniq namoyon etadi. Mazkur xavfli tendensiya natijasida jahonda xalqaro huquq meyorlarining qadr-qimmatini zaiflashib bormoqda, insoniyat tinchligi va barqaror taraqqiyotiga jiddiy tahdidlar yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy kishilik jamiyatida tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikning bot-bot yuz ko'rsatayotgan ko'rinishlaridan biri genotsid bilan bog'liq. Genotsid - "insoniyatga qarshi qaratilgan eng og'ir jinoyatlardan biri, biror-bir milliy, etnik, irqiy, diniy yoki boshqa tarixan shakllangan madaniy-etnik guruhni yoki guruh a'zolarini o'ldirish; ularning sog'lig'iga og'ir zarar yetkazish, bunday guruhda bola tug'ilishining oldini olishga mo'ljallangan choratadbirlar; oiladan bolalarni olib qo'yish; bu guruhni butunlay yoki qisman jismoniy yo'q qilishga mo'ljallangan turmush sharoitlarini atayin yaratish yo'llari bilan butunlay yoki qisman yo'q qilish maqsadida amalga oshiriladigan vayronkor amaliyotdir"[9]. O'tgan asrda tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikning mazkur ko'rinishi xalqaro jinoyat sifatida tan olindi. Xususan, 1948 yilda BMTning "Genotsid jinoyatini oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi Konvensiyasi" qabul qilindi[10]. Bir qarashda bu sa'y-harakatlar mazkur jinoyatlarning ildiziga bolta uradigandek, uni batamom tarixning chirkin sahifalarida qoldiradigandek edi. Biroq, ko'rilgan choralarga qaramasdan XX asr mobaynida genotsid jinoyati takror va takror namoyon bo'lishda davom etdi. Xalqaro hamjamiyat, huquq ekspertlari ikkinchi jahon urushidan so'ng sodir bo'lgan quyidagi voqealarni genotsid sifatida e'tirof qildi: a) 1960 yilning avgustida Tibetda tibetliklarni diniy guruh sifatida yo'q qilishga qaratilgan urinishlar; b) 1975-1979 yillarda Kambodjada Pol Pot va Iyeng Sari tuzu-mi tomonidan uch milliongacha kambodjaliklarning qirib tashlanishi; v) 1987-1989 yillarda Anfal operatsiyasi jarayonida Iroq qo'shinlari tomoni-dan Shimoliy Iroqdagi kurd aholisining qirib tashlanishi; g) 1994 yilda Ruandada ommaviy qirg'in natijasida xutu qabilasi vakillari tomonidan tutsi qabilasidan 800 ming kishining qirib tashlanishi; d) 1995 yilda Srebrenitsada Bosniya serblari tomonidan bosniyalik musulmonlarning ommaviy tarzda o'ldirilishi[9].

Afsuski, genotsid jinoyatlarining sodir etilishi yangi asrda ham barham topganicha yo'q. Bugun ham ayrim mamlakatlarda bunday jinoyatlarga yo'l qo'yilgani qayd etilmoqda. Ularning eng yorqin misollaridan biri Sudanning Darfur mintaqasida sodir etilgan qatag'onlardir. 2003 yildan boshlangan bu mojaroda hukumat qo'shinlari va ularga yordam bergan guruhlar qora tanli mahalliy aholiga qarshi ommaviy zo'ravonliklarni amalga oshirdi. Natijada minglab odamlar

halok bo'ldi, millionlab insonlar qochqinga aylandi[11]. Iroqda 2014 yilda "Islom davlati" nomi ostida tanilgan terrorchilik tashkiloti yezidlarga qarshi ommaviy qirg'inni amalga oshirildi. Qirg'in natijasida yuzlab ayollar asir olindi, ko'plab bolalar qul qilib sotib yuborildi, minglab odamlar shafqatsizlarcha o'ldirildi[12]. Bularning barchasi yangi asrda ham tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarning mazkur ko'rinishi saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

XXI asrda tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarning eng tahdidlaridan biri turli harbiy guruhlariga jangchi sifatida yollanish bilan bog'liq bo'lib qoldi. Geosiyosiy ziddiyatlar turli siyosiy kuchlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xususiy harbiy kompaniyalar, terroristik guruhlar sonini misli ko'rilmagan darajada ko'paytirdi. Bu kompaniya va guruhlar jahonning o'nlab nuqtalarida harbiy operatsiyalarni amalga oshirmoqdalar. Mazkur operatsiyalar ko'plab yollanma jangchilarni jalb qilishni taqozo etadi, albatta. Shuning uchun ham harbiy kompaniyalar va terroristik guruhlar ko'plab mintaqalarda targ'ibot va tashviqot ishlariga zo'r bermoqdalar. "Ahamiyatli jihati shundaki, vayronkor g'oya va ta'limotlar stixiyali ravishda targ'ib va tashviqot qilinayotgani yo'q. U shunday targ'ibotga moslashgan turli markazlar, uyushmalar, institutlar tomonidan puxta o'ylangan reja va dasturlar asosida, samarali uslub va usullarga tayangan holda olib borilmoqda. Bu markazlar turli axborot byurolari, videomahsulotlar ishlab chiqarish studiyalari, xorijiy tillarda materiallar tayyorlash byurolari, qo'shiqlar va she'rlar tayyorlash studiyalari, uslubiy bo'limlarni o'z ichiga oladi"[13].

Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikning bugungi kundagi eng vayronkor ko'rinishi terrorizm bo'lib qolmoqda. Terrorizm muayyan ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy yoxud diniy maqsadlarga erishish yo'lida jamiyatda beqarorlik, aholi orasida esa qo'rquv uyg'otishga qaratilgan amaliyotdir. Odatda terroristik harakatlar tinch aholining kundalik turmushini buzishga, ijtimoiy obyektlarni ishdan chiqarishga, kommunikatsiya tarmoqlariga putur yetkazishga, siyosiy rahbarlar yoki jamoat arboblarni jismonan yo'q qilishga yo'naltirilgan bo'ladi[14]. Zamonaviy terrorizm siyosiy hokimiyatni o'zgartirishga qaratilgan siyosiy terrorizm, soxta diniy mafkura asosida tashkil etilgan diniy

terrorizm, o'zga millat vakillariga qarshi kurash tufayli vujudga kelgan terrorizm, zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan kibernetizm shakllarida namoyon bo'lmoqda[15].

Vaqt o'tgani sayin dunyo bo'ylab terroristik tashkilotlar soni ham, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ham ortganidan ortib bormoqda. Bugungi kunda "jahonning turli mamlakatlarida "Al-Qoida", "Al-Murabi-tun", "Ansor ul-islom", "Asoib Ahli al-Haq", "Asbat al-Ansor", "At-Tak-fir val-Hijra", "Ahror ash-Shom", "Musulmon birodarlar", "Jamoat Ansor as-Sunna", Jamoat at-Tavhid val-Jihad", "Dog'iston islom Sho'rosi", "Aj-nad ash-Shom islom ittifoqi", "Islom davlati", "Sharqiy Turkiston islom harakati", "Falastin islom jihodi", "Islom jihodi ittifoqi", "Fatx-ul-islom", "Xazzm", "Hayot Tahrir ash-Shom", "Xamas", "Xizbolloh", "Hizb ut-Tahrir al-Islomiya" kabi yuzlab guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda"[16]. Ushbu guruhlar dunyo mamlakatlari tinchligi va xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida qolmoqda. "Bugungi kunda dunyoda,- deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev shu munosabat bilan,- yon-atrofimizda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda. Turli hududlarda qonli mojarolar, qur'olli to'qnashuvlar yuz bermoqda, yangi ziddiyat o'choqlari yuzaga kelmoqda"[15]. Terrorizmning xalqaro tus olishi ayniqsa yoshlar ongi va faoliyatiga jiddiy tahdid solmoqda. "Terroristik tashkilotlar ta'siri ostiga tushib qolgan yigit va qizlar mamlakatda kechayotgan bunyodkorlik ishlaridan ajralib qolmoqdalar, turli yangilanishlarni negativ kontekstda baholashga odatlanmoqdalar. Jamiyatda bunday yoshlarning mavjudligi nafaqat ijtimoiy barqarorlikka, balki mamlakat kelajagiga ham rahna solmoqda"[17]. Xuddi shuning uchun jahonning barcha mamlakatlarida terrorizm nafaqat umumsayyoraviy xavfsizlikka, balki inson huquqlari va erkinliklariga ham jiddiy tahdid soladigan omil sifatida baholanmoqda. Aynan shu sababga ko'ra Birlashgan Millatlar Tashkiloti davlatlar va xalqaro institutlarning terrorizmga qarshi kurashish, uning oldini olish, ekstremistik g'oyalar tarqalishini cheklash, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi o'zaro hamkorligini uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor bermoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси.// lex.uz/docs/111453.
2. Новичков В.Е. Преступления против мира и безопасности человечества: проблемы конфликта российского, зарубежного и международного права.// Таврический научный обозреватель, 2016, №4.- 61-с.
3. Воробьев А.В. Основные направления и формы сотрудничества государств по предотвращению преступлений против мира.// Аграрное и земельное право, 2017, №12.- 144-150-с.
4. Манойло А.В. Современные подходы США к борьбе с терроризмом.// Актуальные проблемы Европы, 2021, №4.- 53-79-с.
5. Потемкина О.Ю. Новая стратегия Союза Безопасности ЕС.// Аналитическая записка, 2020, №32.- 1-8-с.
6. Хуан Д. Террористические преступления в Китае и противодействие терроризму.// Азиатско-Тихоокеанский регион: экономика, политика, право, 2014, №1-2.- 183-192-с.
7. Дзейтова Р.Б. Запрет пропаганды войны в международном и российском праве.// Пенитенциарная наука, 2023, №3.- 266-с.
8. Квашнин М.Ю. Вторая война США против Ирака (2003 год): причины, применение военной силы, последствия.// Вестник магистратуры, 2016, №1-5.- 33-35-с.
9. Назаров К. Жахон фалсафаси комуси. Ж.1.- Т.: Ўзб. файл. миллий жам. нашр., 2019.- Б.254.
10. Конвенция о предупреждении преступления геноцида и наказании за него.// www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/genocide.shtml?ysclid=mninx6ssnj518267691.
11. Костелянец С. Конфликт в суданском регионе Дарфур: региональный аспект.// Россия и мусульманский мир, 2015, №9.- 120-с.
12. Кочои С.М., Хасан Х.А. Геноцид езидов и перспективы борьбы с терроризмом в Ираке.// Актуальные проблемы российского права, 2017, №12.- 117-124-с.
13. Рустамов Р.Р. Замонавий тарғибот системалари: ижтимоий-фалсафий таҳлил: Фалс.ф.д. дисс.- Бухоро: БухДУ, 2025.- Б.43.
14. Климаченкова В. О. Современный терроризм: понятие, условия и причины.// Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В. Г. Белинского, 2007, №7.- 12-16-с.
15. Рахматова Д. Геосийсий рақобат шароитида миллий хавфсизлики таъминлаш концепциялари.- Т.: Lesson Press, 2021.- Б.70.
16. Мирзиёев Ш.М. Ҳарбий ватанпарварлик тарбиясини кучайтириш – долзарб вазифамиздир.// Миллий тик-ланишдан – миллий юксалиш сари. Ж.4.- Т.:Ўзбекистон, 2020.- Б.130.
17. Бекмуродова Г.Х. Замонавий ижтимоий деструкция: мазмуни ва шакллари, Ўзбекистонда намоён бўлиш хусусиятлари: Фалс.ф.д. дисс.- Бухоро: БухДУ, 2022.- Б.134.